O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 15
2025 yil “29” avgust

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori
_____ Sh.Sh.Negmatova
2025 yil “__” _____

MUSIQA NAZARIYASI. SOLFEDJIO

FANINING O‘QUV DASTURI

(Kunduzgi)
1-kurs

Bilim sohasi:	**100000 - Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60110600 - Musiqa ta’limi**

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
MN.S11210	2025-2026	1,2	9 (5/4)

Fan/mavzu turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4/4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Musiqa nazariyasi.Solfedjio	108 1-semestr 60 (10/50) 2-semestr 48 (10/38)	162 1-semestr 90 2-semestr 72	270

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o`stirish; musiqa ifodasi tarkibiy qismlari sohasi bo`yicha bilimlar berib, musiqiy asarni o`rganishda uning mazmunini to`g`ri ochishga yordam berishdir. Musiqa asar shaklining tuzilishini asosiy qonunlari bilan tashnishtirish, har xil tipdagi shaklni tahlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji prinsiplari, shaklning qismlarni funksiyasi mavzularning bilimlari bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Fanning vazifasi – talabalar asosiy ifoda vositalarini tushunishlari uchun ularga

- kerakli malaka va bilimlarni berish;
- talabalarning estetik didlarini to`g`ri yo`naltirish;
- talabalarni kompozitorlik ijodining muhim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqaviy til tizimi va garmoniyaning unda egallagan o`rni haqida aniq tushunchalar berish;
- musiqa asar shaklining tuzilishini asosiy qonunlari bilan tanishtirish, har tipdagi shaklni tahlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji prinsiplari, shaklning qismlarni funksiyasi mavzularning bilimlari bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
- talabalarning musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish, hamda bu qobiliyatini amaliy ishlarda qo`llay olishga o`rgatishdir;
- talabalarni lad, ritm va uslubiy tuyg`usini tarbiyalash va rivojlantirish.
- musiqiy xotirasini, xalq kuylari va klassik kompozitorlar badiiy boyliklari bilan boyitish.

Mashg‘ulotlar shakli: MA`RUZA

I-Semestr (M)

Musiqiy tizim.

Musiqa nazariyasiga kirish. Musiqa san’ati va uning o’ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifodali vositalari. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari. Oberton (yuqori ton), tabiiy tovushqator. Musiqiy tizim tovushqatori, Tovushlarni belgilash harfiy tizimi. Oktava. Temperasiyalangan soz. Yarim ton va butun ton. Asosiy va hosila pog’onalar. Alterasiya belgilari. Diatonik hamda xromatik yarim tonlar va butun tonlar. Diapazon, registr, tovushlar engormonizmi.

https://bulletin.stanford.edu/programs/MUSIC-MIN (MUSIC19A). *Stanford universiteti Kaliforniya. AQSH.*

Nota yozuvi tizimi.

Nota yo’li. Nota belgisi. Kalitlar. Tovush cho’zimlari. Nota cho’zimini uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar. Ko’p ovozlikni nota yo’lida ifodalash qoidalari. Akkolada, partitura. Dinamik belgilar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari.

Ritm. Metr. O'chov. Ritm tushunchasi. Cho'zimlarning asosiy va erkin bo'linishi. Metr, hissa, takt tushunchalari. Oddiy metr va o'lchovlar. Nota cho'zimlarining oddiy taktlarda turkumlanishi.
Templar. Dinamik belgilar. Dirijorlik sxemalari Mazkur mavzularda musiqada temp va uning turlari, dinamik belgilar orqali ifoda vositalarining mazmuni hamda dirijorlik sxemalarining amaliy qo'llanishi o'rganiladi. Shuningdek, ijro jarayonida temp, dinamika va dirijorlik ishoralarining uyg'unligi musiqiy asarning ifodaviyligini ta'minlash omili sifatida tahlil qilinadi.
Lad va tonalliklar. Ushbu mavzuda lad va tonallik tushunchalari, ularning tarixiy shakllanishi hamda musiqiy asarlarda tutgan o'rni o'rganiladi. Turli lad turlari, durak va minor tizimlari, ularning xususiyatlari va farqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tonallikning barqarorlik, tortishish va uyg'unlik tamoyillari musiqiy misollar asosida ko'rib chiqiladi.
Major ladi va tonalliklari. Major kvinta davrasi Major ladi tuzilishi va gammasi. Turg'un va noturg'un pog'onalar. Asosiy va yondosh pog'onalar (lad pog'onalari funksiyalari). Tonallik tushunchasi. Major tonalliklar kvinta davrasi. Garmonik va melodik major.
Minor ladi va tonalliklari. Minor kvinta davrasi Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar. Minor ladi tuzilishi. Minor tonalliklar kvinta davrasi. Garmonik va melodik minor. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.
Xalq musiqa ladlari. Pentatonika Xalq musiqa ladlari haqida ma'lumot berish. Xalq musiqa ladlari turlari.
Intervallar. Orttirligan va kamaytirilgan intervallar. Tabiiy major va minor intervallari. Garmonik major va minor intervallari. Xromatik intervallar yechilishi. Interval tushunchasi. Garmonik va melodik interval. Intervalning son va sifat miqdorlari. Oddiy va tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar. Intervallar aylanishi. Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.

Mashg'ulotlar shakli: MA`RUZA
II-Semestr (M)
Akkordlar. Akkord. Uchtovushlik. Akkord tushunchasi. Akkord turlari. Uchtovushlik tushunchasi. Uchtovushlik turlari va aylanmalari.
Uchtovushlik turlari va aylanmalari Uchtovushlik turlari va aylanmalar

Septakkord va uning turlari. Dominantseptakkord.

Septakkord tushunchasi va uning turlari. Dominantseptakkord, uning tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.

Yetakchi septakkord.

Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi..

Subdominantseptakkord.

Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Kuydagi akkordlar

Og`ishma. Modulyatsiya. Transpozitsiya.

Modulyatsiya turlari. Asar tonalligini aniqlash. Ushbu mavzuda transpozitsiya tushunchasi, uning musiqiy amaliyotdagi ahamiyati hamda turli cholg‘u va vokal asarlarini boshqa balandlikka ko‘chirish usullari o‘rganiladi. Shuningdek, transpozitsiya jarayonida ijrochi va dirijorning nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Kuy tuzilishi. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari.

Musiqa asarida kuyning ahamiyati. Kuy harakati turlari. Kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida. Musiqadagi kuy bezaklari. Ijrochilik uslublarining yozma belgilari.

2.

II. Amaliy mashg‘ulotlar bo’yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-Semestr

1. Musiqiy tizim.
2. Nota yozuvi tizimi.
3. Ritm. Metr. O`lchov. Temp
4. Lad va Tonalliklar
5. Major ladi va tonalliklari. Major kvinta davrasi
6. Minor ladi va tonalliklari. Minor kvinta davrasi. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.
7. Xalq musiqa ladlari. Pentatonika.
8. Intervallar. Oddiy va tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar.
9. Orttirligan va kamaytirilgan intervallar
10. Garmonik major va minor intervallari. Xarakterli intervallar yechilishi. Uchtonliklar

2-Semestr:

1. Akkordlar. Uchtovushlik.
2. Uchtovushlik turlari va aylanmalari
3. Septakkord va uning turlari.
4. Dominantseptakkord.
5. Yetakchi septakkord.
6. Subdominantseptakkord.
7. Og`ishma. Modulyatsiya.
8. Transpozitsiya.
9. Kuy tuzilishi.
10. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari.

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish bilan ishlash amallari bajariladi.

III MODUL
SOLFEDJIO MASHG‘ULOTLAR BO’YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Solfedjio mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-semestr

1. Musiqiy tizim mavzusiga doir musiqiy diktant
2. Nota yozuvi tizimi mavzusiga doir musiqiy diktant
3. Ritm. Metr. O`lchov. Temp mavzusiga doir musiqiy diktant. Drijorlik usullari
4. Lad va Tonalliklar doir musiqiy diktant
5. Major ladi va tonalliklari. Major kvinta davrasi. Major ladlarini kuylash
6. Minor ladi va tonalliklari. Minor kvinta davrasi. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar. Minor ladlarini kuylash
7. Xalq musiqa ladlari. Pentatonika mavzusiga doir musiqiy diktant
8. Intervallar. Oddiy va tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar mavzusiga doir musiqiy diktant
9. Orttirligan va kamaytirilgan intervallar mavzusiga doir musiqiy diktant
10. Garmonik major va minor intervallari.
11. Xarakterli intervallar yechilishi. Uchtonliklar mavzusiga doir musiqiy diktant
12. Intervallar va akkordlarni tinglab aniqlash

2-Semestr:

1. Akkordlar. Uchtovushlik. mavzusiga doir musiqiy diktant
2. Uchtovushlik turlari va aylanmalarini kuylash
3. Septakkord va uning turlari mavzusiga doir musiqiy diktant
4. Dominantseptakkord. Major va minor tonalliklarida kuylash
5. Yetakchi septakkord. Major va minor tonalliklarida kuylash
6. Subdominantseptakkord. Major va minor tonalliklarida kuylash
7. Og`ishma. Modulyatsiya mavzusiga doir musiqiy diktant
8. Transpozitsiya mavzusiga doir musiqiy diktant
9. Kuy tuzilishi mavzusiga doir musiqiy diktant

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

-konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- manbalar bilan ishlash;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- individual o`quv vazifalar bajarish;
- mavzuga oid topshiriqlarni nota daftarida tuzish;
- nota daftarida berilgan kuy, bas ovozini garmoniyalashtirish;
- fortepianoda akkordlar ketma-ketlik (tsifrovka)larini chalish;
- asarni tahlil qilish;
- bir, ikki ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash;
- musiqa elementlarini tovushdan va tonalliklarda tuzib kuylash;
- musiqa elementlarini tinglab aniqlash;
- intervalli va akkordli ketma-ketliklarni kuylash.

Ta’lim yo`nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin

	Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:	
	№	**I semester uchun mustaqil ish mavzulari**
	1	**Musiqiy tizim.**
	2	**Nota yozuvi tizimi.**
	3	**Ritm. Metr. O`lchov. Temp**
	4	**Lad. Major ladi va tonalliklari. Minor ladi va tonalliklari.**
	5	**Xalq ladlari**
	6	**Intervallar**
	7	**Xaraketrli intervallar yechilishi.**
	8	**Uchtonliklar**
	№	**II semester uchun mustaqil ish mavzulari**
	1	**Akkord.**
	2	**Uchtovushlik.**
	3	**Septakkord va uning turlari.**
	4	**Dominantseptakkord**.
	5	**Yetakchi septakkord.**
	6	**Subdominantseptakkord**.
	7	**Og`ishma. Modulyatsiya. Transpozitsiya.**
	8	**Kuy tuzilishi. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari.**

3.	**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** Talaba bilishi kerak: • musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladlari, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog`onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og`ishma, musiqa bezaklari; • garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funktsiyalarini, stilistik hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil qilish usullari; • musiqiy shaklning muhim elementlari; musiqaning asosiy rivojlantirish printsiplari; shakl qismlarining funktsiyalari; bayon etish turlari va har bir shakl turining tuzilish qonun qoidalari; • solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, bir va ikki ovozli kuylarni sof intonatsiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, musiqa elementlarini tinglab aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalari haqida tasavvurga ega bo`lishi; (bilim) • major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlar yechilishlarini, har xil tovushlardan xalq musiqa ladlari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda va fortepianoda tuzish; • o'tilgan akkordlarni to`rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni qo`shishda ovoz yo`nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish; • berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko`rsatib, har xil tipdagi shakllarning o`ziga xos xususiyatlarini ajratish; har-bir asosiy qismni va qismlarning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi; musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish • kuyning ayrim elementlari o`zaro musobatlari, ko`pincha xalq musiqa ijodidan keng o`rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo`linishini xis etish, turli hildagi major va minor gammalar, • intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash va tinglab aniqlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; • intervallar, akkordlar, gammalar tuzish; uncha katta bo`lmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi aniqlab, obrazlar xarakterini tahlil qilish; • berilgan kuy yoki bas ovozini garmoniyalash; akkordlar ketma ketliklarini (tsifrovka) davriya shaklida chalib berish; • oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmoniya jihatidan tahlil qilish; har qanday shakldagi asarni tahlil qilish; • sof, ma'noli, to`g`ri me'yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e'tibor bergan holda bir, ikki ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo`lidagi asarlar namunalarini solfedjiolash, ularni eshitib turib notaga solish, davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar kuylash; xromatik tovushlari mavjud bir tonallik va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar kuylash; interval, akkord, ladlarni tinglab aniqlash; berilgan kuyni transpozitsiya qilib kuylay olish; bir va ikki ovozli melodik diktant, intervalli diktantlar yozish ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.

4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *Blis so`rov* • *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blis so`rov* • *blis test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. G.A.Ibraximjanova,L. A. Urmanova,M.X.Xodjayeva, F. N.Xalilov "Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya" 2017-yil. (O'quv qo'llanma) 2. Q.Rahimov "Musiqaning elementar nazariyasi" 2007-yil. 3. Q.Rahimov Musiqaning elementar nazariyasi bo`yicha mashq va vazifalar to`plami 2006-yil **IX. Qo`shimcha adabiyotlar:** 1. A.Bahriyev "Musiqaning elementar nazariyasi" BuxDU-2011 2. Sami Aziz o`g`li, N.Azizov, F.Azizov "Musiqaning elementar nazariyasi" 2005-yil 3. Б.Калмқков, Г.Фридкин. Сольфеджио часть I одноголосие. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI** 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyuldagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son farmoni. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 02-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son farmoni. **Axborot manbaalari** 1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 4.www.pedagog.uz 5. http://www.ziyonet.uz/
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____ ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan

8.	**Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:** Sh. Sh. Shaykulov– Samarqand davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti A.A.Abdumannatova - Samarqand davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** **QUDRATOV.I** –Samarqand davlat pedagogika instituti musiqa ta'limi kafedrasi professori pedagogika fanlari nomzodi (ichki) **MO'MINOV. A** - Samarqand ixtisoslashtirilgan san`at maktabi Musiqa nazariyasi kafedrasi mudiri (tashqi)

Fan dastur Aniq va amaliy fanlar fakultetning 2025-yil 28-fevraldagi 10-f sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi: **Sh.Shayqulov**

Kafedra mudiri: **B.R.Boltayev**

Fakultet dekani: **A.N. Abdullayev**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **N.H.Musulmonov**

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq va amaliy fanlar fakulteti, Musiqa ta'limi kafedrasi 60110600 – Musiqa ta'lim yo`nalishi (bakalavr) yo`nalishi uchun "Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fan dasturiga (ichki)

TAQRIZ

"Musiqa nazariyasi. Solfedjio"fan dasturda – musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bo'lg'usi musiqa madaniyati o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimum belgilab berilgan. Dastur ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohatlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar boy ma'naviy, musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan.

Talabalarni musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o'stirish;talabalarni musiqiy xotira, ritm hissini, musiqaviy fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni, musiqiy tafakkurlarini rivojlantirish, musiqiy didini to'g'ri yo'naltirish ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir.

Binobarin o`quv jarayoni mukammal tashkil etilishida namunaviy va ishchi dasturlarning mukammal talab darajasida bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan dasturi kirish, soatlar rejasi, mavzular bayoni va adabiyotlar ro`yxatini o`zida aks ettirgan. Shu jumladan zamonaviy internet resurslari hamda mustaqil ta`lim mavzularining ham o`rin egallaganligi dasturning talablar asosida tayyorlanishiga xizmat qilgan. "Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fani bo'lajak o`qituvchilarni nota cho'zimining belgilanishi, nota yo'li, kalitlar, alteratsiya belgilari, pauzalar, akkolada, ko'p ovozlikning yozilishi, musiqaviy aksent, takt chizig'i, taktoldi, ritm, oddiy, murakkab, aralash metr va o'lchovlar kabi tushunchalar bilan tanishtirib o'tadi. Bo'lajak mutaxassislar olgan bilimlarini amaliy va ilmiy – pedagogik faoliyatda qo'llashlari imkonini beradi.

Bir so`z bilan aytganda mazkur "Musiqa nazariyasi. Solfedjio"fan dasturi barcha DTS talablariga javob beradi va qilgan va mutaxassis dastur tuzishda ko`zlangan maqsadiga erishgan va ushbu namunaviy fan dasturini amaliyotga joriy qilishga tavsiya qilaman.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Aniq va amaliy fanlar fakulteti,
Musiqa ta`limi kafedrasi professori: **I.QUDRATOV**

I. Qudratov ning imzosini tasdiqlayman
SamDU kadrlar bo'limi bosh...

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq va amaliy fanlar fakulteti, Musiqa ta'limi kafedrasi 60110600 – Musiqa ta'lim yo`nalishi (bakalavr) yo`nalishi uchun "Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fan dasturiga (tashqi)

TAQRIZ

Musiqaning o'ziga xos xususiyati, his-tuyg'ular, ruhiy holatlarning nozik farqlarini ifodalashda hamda shu bilan birga insonning ichki olamiga chuqur tasir etishi bilan qimmatlidir. Shu bilan aytib o'tish joizki, uning qadim zamonlardan tarbiya vositasi ekanligi bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q, balki u yangi insonlarni, jumladan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni nafosat olamiga yo'llashda ularga estetik va axloqiy tarbiya yo'nalishining shakllanishida davlat ahamiyatiga ega ekanligi barchamizga ma`lum.

"Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fan dasturda – musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bo'lg'usi musiqa madaniyati o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimum belgilab berilgan. Dastur ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohatlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar boy ma'naviy, musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan..

Binobarin o`quv jarayoni mukammal tashkil etilishida namunaviy va ishchi dasturlarning mukammal talab darajasida bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan dasturi kirish, soatlar rejasi, mavzular bayoni va adabiyotlar ro`yxatini o`zida aks ettirgan. Shu jumladan zamonaviy internet resurslari hamda mustaqil ta`lim mavzularining ham o`rin egallaganligi dasturning talablar asosida tayyorlanishiga xizmat qilgan. "Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fani bo'lajak o`qituvchilarni nota cho'zimining belgilanishi, nota yo'li, kalitlar, alteratsiya belgilari, pauzalar, akkolada, ko'p ovozlikning yozilishi, musiqaviy aksent, takt chizig'i, taktoldi, ritm, oddiy, murakkab, aralash metr va o'lchovlar, turg'un tovush, tonika, noturg'un tovush va uning turg'un tovushga o'tishi, major ladi, diyezli va bemolli major tonalliklari, kvinta davrasi, minor ladi, diyezli va bemolli minor tonalliklari, kvinta davrasi, parallel va nomdosh tonalliklar kabi tushunchalar bilan tanishtirib o'tadi. Bo'lajak mutaxassislar olgan bilimlarini amaliy va ilmiy – pedagogik faoliyatda qo'llashlari imkonini beradi.

Bir so`z bilan aytganda mazkur "Musiqa nazariyasi. Solfedjio" fan dasturi barcha DTS talablariga javob beradi va qilgan va mutaxassis dastur tuzishda ko`zlangan maqsadiga erishgan va ushbu namunaviy fan dasturini amaliyotga joriy qilishga tavsiya qilaman.

Samarqand ixtisoslashtirilgan musiqa va san`at maktabi Musiqa nazariyasi kafedrasi mudiri: A.MO'MINOV